Babanazarova Sohiba Abdusharipovna (Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti;
e-mail: sohibababanazarova@gmail.com)

"MEHMONDO'STLIK" KONSEPTINING PAREMALAR ORQALI SHAKLLANTIRILGAN NOMINATIV MAYDONI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi "mehmondo'stlik" konseptining paremiologik birliklar orqali shakllangan nominativ maydoni tahlil qilinadi. Tadqiqot kognitiv tilshunoslik yondashuvlari asosida olib borilib, konseptning til vositalari orqali ifodalanishi hamda uning milliy-madaniy mazmuni yoritilgan. Tadqiqot davomida "mehmondo'stlik" konseptini reprezentatsiya qiluvchi 112 ta paremiologik birlik aniqlanib, ularning semantik va kognitiv xususiyatlari tavsiflangan. Tahlil natijasida konsept yadrosini hurmat, saxovat va samimiyat semalari tashkil etishi, periferik qatlamlarida esa baraka, ko'ngil kengligi, mehmon-mezbon odobi, mehmondorchilik me'yorlari hamda baxillikni qoralovchi qarashlar mujassamlashgani aniqlangan. Tadqiqot natijalari o'zbek xalqining mehmondo'stlik haqidagi konseptual tasavvurlari va milliy-madaniy qadriyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *mehmondo'stlik konsepti, nominativ maydon, paremiologik birliklar, maqollar, frazeologik birliklar, kognitiv tilshunoslik, konseptual tahlil, milliy-madaniy qadriyatlar, paremiologiya.*

Бабаназарова Сохиба Абдушариповна (докторант Хорезмской академии Мамуна
e-mail: sohibababanazarova@gmail.com)

АНАЛИЗ НОМИНАТИВНОГО ПОЛЯ КОНЦЕПТА «ГОСТЕПРИИМСТВО» НА МАТЕРИАЛЕ ПАРЕМИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируется номинативное поле концепта «гостеприимство», сформированное на материале узбекских паремиологических единиц. Исследование выполнено в русле когнитивной лингвистики и направлено на выявление языковых средств репрезентации концепта и его национально-культурного содержания. В ходе исследования были выявлены 112 паремиологических единиц, репрезентирующих концепт «гостеприимство», и проанализированы их семантические и когнитивные особенности. Установлено, что ядро концепта составляют семы уважения, щедрости и искренности, тогда как периферийные зоны включают представления о благодати, широте души, этикете гостя и хозяина, нормах гостеприимства и осуждении скупос-ти. Полученные результаты позволяют раскрыть концептуальные представления узбекского народа о гостеприимстве и отражённых в языке культурных ценностях.*

Ключевые слова: *концепт гостеприимства, номинативное поле, паремиологические единицы, пословицы, фразеологические единицы, когнитивная лингвистика, концептуальный анализ, национально-культурные ценности, паремиология.*

Babanazarova Sokhiba Abdusharipovna (Doctoral Researcher at the Khorezm Mamun Academy;
e-mail: sohibababanazarova@gmail.com)

AN ANALYSIS OF THE NOMINATIVE FIELD OF THE CONCEPT "HOSPITALITY" BASED ON PAREMIOLOGICAL UNITS

Annotation. *This article analyzes the nominative field of the concept of "hospitality" as represented in Uzbek paremiological units. The study is based on the principles of cognitive linguistics and focuses on the linguistic representation of the concept and its national-cultural content. A total of 112 paremiological units representing the concept of hospitality were identified and examined in terms of their semantic and cognitive characteristics. The analysis revealed that the core of the concept consists of the semes of respect, generosity, and sincerity, while its peripheral zones include notions of blessing, open-heartedness, guest-host etiquette, hospitality norms, and the condemnation of stinginess. The findings contribute to a deeper understanding of the Uzbek people's conceptualization of hospitality and the cultural values reflected in language.*

Keywords: *hospitality concept, nominative field, paremiological units, proverbs, phraseological units, cognitive linguistics, conceptual analysis, national and cultural values, paremiology.*

Kirish. Kognitiv lingvistikada nominativ maydon deganda ma'lum bir jamiyat rivojlanishining muayyan davrida konsept mazmunini ifodalovchi til birliklari majmui tushuniladi [1;46-b.]. Konseptning nominativ maydonini qurish uning lingvokognitiv tahlilining birinchi sharti hisoblanadi. Shu sababli nominativ maydonni qurishdagi aniqlik va izchillik tadqiq qilinayotgan konseptning mazmuni hamda tuzilishini to'liq va samarali aniqlashga ta'sir qiladi [2;36-b.].

Konseptning nominativ maydonini ikki usul bilan qurish mumkin. Birinchi usul konseptning faqat bevosita nomlanishlarini – kalit so'zni va uning sinonimlarini (ham tizimli, ham kontekstual sinonimlarni)

aniqlashni nazarda tutadi. Ikkinchi, murakkabroq usul esa konseptning butun mavjud nominativ maydonini aniqlashni ko‘zda tutadi. Bunga giponimlar (torroq ma’noli birliklar) va konseptning turli belgilarini ifodalovchi nomlar, uning muhokama qilinadigan turli vaziyatlarida uchraydigan til birliklari ham kiradi. Bunday yondashuv ancha chuqur va ishonchli natijalar beradi [1;124–125-b,]. Bundan tashqari, konsept nomlanishining faqat tizimli til vositalari bilan cheklanib qolish mumkin yoki tahlilga tasodifiy (okkazional) nominativ birliklarni ham kiritish mumkin. Chunki ular ham konsept modelini tavsiflash va qurish uchun muhim hamda o‘ziga xos material beradi [2;36-b.].

Konsept tahlilida, dastlab, nominativ maydon aniqlanadi. Biz “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”, “Qanotli so‘zlar”, “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (5 tomlik) kabi lug‘atlardan foydalangan holda. “mehmondo‘stlik” konseptining paremalar asosidagi nominativ maydonini tuzdik va nominativ maydondagi paremilogik birliklarning semantikasini tahlil qildik. Keling, nominativ maydon qurish usullarini “mehmondo‘stlik” konsepti misolida ko‘rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Mehmondo‘stlik” konseptining tuzilishi va mazmunini aniqlash hamda uning milliy xarakter bilan bog‘liqligi masalasi nafaqat tilshunoslar, balki tilshunoslik bilan bog‘liq fanlar vakillari – psixolingvistlar, madaniyatshunoslar, psixologlar va faylasuflarning ham katta qiziqishiga sabab bo‘lmoqda (qarang: E.M.Vereshchagin, V.V.Vorobyov, A.A.Zalevskaya, V.I.Karasik, V.G. Kostomarov, E.S.Kubryakova, D.S.Lixachov, V.A.Maslova, V.N.Teliya va boshqalar [4]. So‘nggi o‘n yilliklar tadqiqotlarining o‘ziga xos xususiyati antropotsentriklik, ya’ni, inson omilini, shu jumladan, til sohasidagi inson faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilganligidir. Tavsifiy va tasnifiy tilshunoslikdan antropologik tilshunoslikka o‘tish Noam Xoamskining generativizm nazariyasi tufayli mumkin bo‘ldi. Ushbu nazariyada tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan quyidagi tamoyilni ajratib ko‘rsatish mumkin: til inson tafakkuri va psixikasining fenomeni sifatida qaralishi kerak. Ma’noning madaniy komponenti har qanday milliy til birliklarining barcha sathlarida mavjud bo‘lgan ajralmas xususiyatdir. Tilga integrallashgan yondashuv alohida bir tilning milliy o‘ziga xosligini hisobga olish imkonini beradi, chunki til vositalari orqali ifodalash usullari muayyan til, madaniyat va an’analarga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Xalqning tarixi, madaniyati, dunyoni ko‘rish va idrok etish usullari, ayniqsa, frazeologiyada yorqin aks etadi. An’anaviy xalqona tasavvurlar va mentalitetlar tizimini tushunishda tilning dunyo manzarasi alohida ahamiyat kasb etadi [4;4-b.]. Konsept muammosini ham aynan shu prizma orqali ko‘rib chiqish lozim. Mazkur tadqiqotda o‘rganilayotgan “mehmondo‘stlik” konsepti barcha madaniyatlar uchun dolzarbdir, chunki u etnosning urf-odat va an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shu xalqning madaniy dunyoqarashi haqida tasavvur beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kognitiv lingvistika va konseptual tahlil metodologiyasi tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek tilidagi “mehmondo‘stlik” konseptining nominativ maydonini aniqlash, uning tarkibiy qismlari hamda til birliklari orqali ifodalanish xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tavsifiy (deskriptiv), komponent tahlil, konseptual tahlil va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Dastlab, “mehmondo‘stlik” konseptining nominativ maydoni aniqlanib, unga oid paremiologik birliklar ajratib olindi.

Tahlil va natijalar. “Mehmondo‘stlik” konseptining nominativ maydonini tuzish uchun izlanishlarimiz davomida 112 ta paremani aniqladik. Shu yerda ta’kidlab o‘tish kerakki, keng nominativ maydonga ega bo‘lgan konseptlar, odatda, til tizimida boshqa birliklar bilan bog‘langan bo‘ladi, jumladan, antonimlari bilan. Konseptni tushunish uchun uning nomi, sinonimlari va antonimlari va boshqa bog‘liq birliklar o‘rganilsa, konseptning semantik chegarasi va mazmuni yanada aniqroq ochiladi. Shu sababli biz har bir konseptning nominativ maydoni birliklarini aniqlayotganizmizda sinonimlari yoki antonimlari bilan bog‘liq paremalarni ham hisobga oldik. Masalan, mehmondo‘stlik konseptini reprezentatsiya qiluvchi paremalarni yig‘ayotganda baxillik, xasislik, sovuqqonlik yoki beparvolik haqidagilarga ham e’tibor qaratdik va misollar qatoriga kiritdik.

“Mehmondo‘stlik” konseptiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: mehmondo‘stlik – 1. Mehmondo‘st ekanlik. Azaldan o‘zbek xalqi o‘zining mehmondo‘stligi bilan mashhur. Gazetadan; 2. Mehmondo‘stga xos xislat, xatti-harakat, mehmon kutishni o‘rniga qo‘yish. Xalqimizdagi mehr-oqibatlilik, bolajonlik, mehmondo‘slik kabi milliy odatlar umuminsoniy mazmun kasb etgan. “O‘TA”.–Ena, mehmondo‘stlikni bugun do‘ndirasiz, –keyin Gulandomga ko‘z o‘ynatdi boyvachcha, – nimalarni ko‘nglingiz istaydi? (Oybek. Tanlangan asarlar) [5;586-b.].

Turg‘un o‘xshatishlar: *mehmonday*. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” [7;130-b.]da ushbu o‘xshatishga quyidagicha ta’rif berilgan:

(Xuddi) mehmonday – *e'zozlamoq*, iltifot ko'rsatmoq, izzat-ikrom bilan kutib olmoq. Masalan: O'zbekchilik-da, – dedi Elchin kulimsirab, – bularni ham **mehmonday** kutib olaveramiz. Mehmonni ko'kragidan itarish odati bizda yo'q (T.Malik. Shaytanat).

Iboralar: *ochiq yuz bilan, ochiq chehra bilan, ko'nglini tog'day ko'tarmoq, ko'nglini ovlamoq, ko'nglini olmoq*.

"O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati" va "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu iboralarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Ochiq yuz bilan, ochiq chehra bilan – yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlik bilan. Masalan: – Keling, kiravering, tortinmang! – dedi u **ochiq chehra bilan** ("Hayotning boshlanishi") [8;131-b.].

Qovog'i soliq – nimadandir norozi, xafa, kayfi buzuq. Masalan: **Qovog'ini solib**, soqolini tutamlab, gapga jimgina quloq solib o'tirgan usta: – Qani, bu yoqqa yur, – dedi bangiga (O.Yoqubov, Larza) [6;318–319-b.].

Ko'nglini tog'day ko'tarmoq – xursand qilib, benihoya ruhlantirmoq. Masalan: – Nuri opa, esonmisiz? Bizning kulbaga qadam qo'yishingiz **ko'nglimni tog'dek ko'tardi-da** ("Qutlug' qon") [8;110-b.].

Ko'nglini ovlamoq – birovni xursand qilishga, kayfini chog' qilishga harakat qilmoq. Masalan: To'raxo'ja o'rtoqlarining **ko'nglini ovlashni** biladigan, o'ta madaniyatli bola edi (D.Nuriy. Osmon ustuni) [5;457-b.].

Ko'nglini olmoq – xursand qilmoq. Masalan: Men birov bilan oshnachilik qilsam, undan jonimni ham ayamay, **ko'nglini olmoqqa** tirishaman (A.Qodiriy. O'tkan kunlar) [5;460-b.].

Yuqoridagi turg'un o'xshatishlar va iboralardan tashqari 106 ta maqollar yig'ildi va barcha paremalar "turg'un o'xshatishlar/iboralar/maqollar, ularning kognitiv belgisi va paremiologik zonasi" ko'rinishida tahlil qilindi:

Xuddi) mehmonday – mehmon alohida izzat-hurmatga loyiq shaxs, uni yuksak hurmat bilan qarshi olish kerak (regulyativ); ***Ochiq yuz bilan, ochiq chehra bilan*** – samimiy muomala mehmondo'stlik belgisi (kommunikativ-axloqiy); ***Qovog'i soliq*** – sovuq muomala mehmondo'stlikka zid (salbiy baholovchi); ***Ko'nglini tog'day ko'tarmoq*** – mehmonni mamnun qilish muhim (emotsional); ***Ko'nglini ovlamoq*** – mehmondo'stlik mehmon kayfiyatini ko'tarishga qaratiladi (kommunikativ-utilitar); ***Ko'nglini olmoq*** – mehmondo'stlik e'tibor va iltifotni talab qiladi (regulyativ); *"Mehmon avval kuni – tilla, ikkinchi kuni – nuqra, uchinchi kuni – mis", "Mehmon birinchi kuni – oltin, ikkinchi kuni – kumush, uchinchi kuni – chaqa, to'rtinchi kuni – baqa"* – mehmondorchilikda vaqt me'yori mavjud, mehmonning Qadri vaqt o'tishi bilan kamayib boradi (regulativ, baholovchi); *"Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan"* – mehmon o'z rizqi, barakasi bilan keladi (diniy-mifopoetik); *"Mehmon kelsa choptirar, bor-yo'g'ingni toptirar"* – mehmon kutish mezbonni jismoniy harakatga majbur qiladi va iqtisodiy resurslar safarbarligini talab qiladi (utilitar); *"Mehmon kelsa et pishar, et bo'lmasa bet pishar"* – mehmonni har qanday holatda ham izzat-hurmatini joyiga qo'yish kerak (regulativ); *"Mehmon mezbonga aziz, mezbon – mehmonga"* – mehmondo'stlik o'zaro hurmat va ehtiromga asoslanadi (ijtimoiy); *"Mehmonning oldiga osh qo'y, ikki qo'lini bo'sh qo'y"* – mehmonni saxiylik bilan siylash kerak (etik-regulativ); *"Mehmonning oldida mushugingni "pisht!" dema"* – mehmonning oldida qo'pol muomala qilinmasligi kerak (etik); *"Mehmon oz o'tirsa ham, ko'p sinaydi"* – mehmon mezbonning odobi va muomalasiga baho beradi (ijtimoiy-psixologik); *"Mehmon – otangdan ulug'"* – mehmon alohida hurmatga loyiq bo'lgan yuksak maqom egasi sifatida baholanadi (aksiologik); *"Mehmon otangdan ham aziz"* – mehmon eng muqaddas va oliy qadriyat sifatida talqin qilinadi (aksiologik); *"Mehmon osh deb kelmas"* – mehmon moddiy manfaat uchun emas, insoniylik yuzasidan keladi (axloqiy); *"Mehmon so'rab yemaydi"*–mehmon hayo va odob saqlashi kerak (etik); *"Mehmondorchilik – turmush ziynati"*–mehmondo'stlik hayotning bezagi va qadriyati hisoblanadi (ijtimoiy-madaniy); *"Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi"*–mehmonga baraka manbayi sifatida qaraladi (diniy-madaniy); *"Qo'noq kelsa, qut kelar"*–mehmon qut-baraka olib keladi (mifopoetik, baholovchi); *"Qo'noq qo'noqdan ulug'"*–mehmonning qadri va martabasi yuksak baholanadi (aksiologik); *"Mehmon – aziz, mezbon – laziz"* – mehmon va mezbon o'rtasida o'zaro hurmat muhim (ijtimoiy); *"Sening eshiging hammaga ochiq bo'lsa, Hammaning eshigi senga ochiq"*–mehmondo'stlik ijtimoiy birdamlik va o'zaro munosabatni mustahkamlaydi (ijtimoiy); *"Odam bor joyga odam keladi"* – samimiy va ochiq muhit odamlarni jalb qiladi (ijtimoiy-psixologik); *"Jon tanga mehmon, Inson – insonga"*–inson hayoti vaqtinchalik, shuning uchun ham odamlar bir-biriga muhtoj (falsafiy); *"O'zi kelgan mehmon – mezbonning izzati"* – mehmon kelishi mezbon uchun hurmat ve e'tibor belgisi (aksiologik); *"Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin"* – qalb kengligi mehmondo'stlik belgisi hisoblanadi (axloqiy); *"Ko'ngling keng bo'lsa, hujra ham saroyday"* – ma'naviy yetuklik moddiy kamchilikni sezdirmaydi (baholovchi); *"Uying koza (chayla, kulba) bo'lsin, Ko'ngling toza*

bo'lsin" – samimiylik va poklik moddiy boylikdan ustun (axloqiy); *"Oshing oz bo'lsa ham, fe'ling soz bo'lsin"* – yaxshi muomala moddiy ne'matdan muhimroq (axloqiy); *"Mehmonga ko'ngling qo'rini ber, uying to'rini ber"* – mehmonni chin dildan e'zozlash kerak (regulyativ); *"Mehmon joyi – ko'z ustida"* – mehmon eng yuqori hurmatga loyiq (aaksiologik); *"Supurilmagan uyga mehmon kelar"* – mehmon kelishi kutilmagan holatda ham bo'lishi mumkin (maishiy); *"Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar"* – mehmon mezbonning turmushi va odobini kuzatadi (ijtimoiy-psixologik); *"Ot boqqin uloqqa, Qo'y boqqin qo'noqqa"* – mehmon kutish uchun oldindan tayyorgarlik zarur (utilitar); *"Mehmon izzatda, Mezbon xizmatda"*, – mezbonning vazifasi mehmonga hurmat bilan xizmat qilish (regulyativ); *"Mehmonni uy palosi emas, so'z adosi xushnud etadi"* – mehmonni yaxshi muomala mamnun qiladi (kommunikativ); *"Ochiq yuz – ne'matdan yaxshi"* – samimiyat moddiy ne'matdan ustun (baholovchi); *"Uyingga kelganga o'ylab so'yla"* – mehmon bilan ehtiyotkorona va muloyimlik bilan muomala qilish kerak (kommunikativ); *"Ovulga kelganni it qopmas"* – mehmon himoya va hurmat ostidagi shaxs hisoblanadi (ijtimoiy-madaniy).

"Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin", *"Bug'doy noning bo'lmasa, bug'doy so'zing yo'qmidi?"* – shirinso'zlik moddiy ne'mat o'rnini bosa oladi (axloqiy-kommunikativ); *"Bug'doy noning bo'lmasa, bug'doy so'zing yo'qmidi?" – mehmondo'stlik samimiyat bilan belgilanadi (axloqiy); "Bug'doy noning bo'lmasa ham, ochiq yuzing bo'lsin"* – samimiyat moddiy ne'matdan ustun turadi (axloqiy); *"Issiq oshing bo'lmasa ham, iliq so'zing bo'lsin"*, *"Siylagani puling bo'lmasa, siypagani tiling bor"* – shirinso'zlik mehmondo'stlikning asosiy belgisi, moddiy imkon bo'lmasa ham, yaxshi muomala bilan hurmat ko'rsatish mumkin (axloqiy-kommunikativ); *"Ko'ngilni qo'ling bilan ovlolmasang, tiling bilan ovla"* – inson qalbiga yaxshi so'z orqali yo'l topiladi (psixologik-kommunikativ); *"Osh-tovog'ing kerakmas, qosh-qovog'ing kerak"* – mehmon uchun muomala taomdan muhimroq (regulyativ); *"Mehmon o'z rizqi bilan keladi"* – mehmon mezbonning rizqini kamaytirmaydi (diniy-mifopoetik); *"Mehmonning rizqi – yo'lda"* – mehmon uchun atalgan rizq oldindan taqdir qilingan va unga yetib keladi (diniy-mifopoetik); *"Mehmonning rizqi o'zidan oldin keladi"* – mehmonning nasibasi uning kelishidan avval hozirlangan bo'ladi (diniy-mifopoetik); *"Yo'xcha guruch osh bo'lur, mehmon ko'ngli xush bo'lur"* – ozgina imkoniyat bilan ham mehmonni mamnun qilish mumkin (etik-regulativ); *"Uyning ko'rki – dasturxon"* – xonadonning fayzi dasturxon orqali namoyon bo'ladi (aksiologik); *"Uy noni bilan chiroyli, Ombor – doni bilan"* – uy-ro'zg'orning asosiy boyligi oziq-ovqat va mo'l-ko'lchilikdir (utilitar); *"Uying kichik bo'lsa ham noning katta bo'lsin"* – moddiy sharoitdan ko'ra saxiylik va mehmondo'stlik muhimroq hisoblanadi (aksiologik); *"Molsiz uy bo'lsa bo'lar, nonsiz uy bo'lmas"* – non ro'zg'orning eng zarur ne'mati sifatida talqin qilinadi (aksiologik); *"Joying kapa bo'lsa ham, choying quyuq bo'lsin"* – uy sharoiti oddiy bo'lsa ham, mehmonni yaxshi kutib olish lozim (regulativ); *"Qutli qo'noqqa – totli tomoq"* – modomiki, mehmon qut-baraka olib kelar ekan, uni yaxshi siylash kerak (diniy-mifopoetik, aksiologik); *"Mehmonni kamroq kut, quyuq kut"* – mehmon sonidan ko'ra uni qanchalik sifatli va izzat bilan kutib olishing muhim (regulativ); *"Mezbon saxiy bo'lsa – nur ustiga nur, Baxil bo'lsa – mehmonning o'tirgani to'r, yegani sho'r"* – mehmonning taassuroti mezbonning saxovatiga bog'liq, baxillik salbiy baholanadi (baholovchi); *"Borini bergan uyalmas"* – imkon qadar saxiy bo'lgan inson aybdor hisoblanmaydi (etik); *"Erta ossang et pishar, Kechga qolsang bet pishar"* – mehmon kutishda tayyorgarlikni vaqtida qilish zarur (regulativ); *"Qizg'anganing – qizil itga yem bo'lar"*–baxillik foyda keltirmaydi, boylik baribir bekorga ketadi (baholovchi); *"Oz oshini ayagan ko'p oshdan quruq qolar"* – saxiy bo'lmagan inson keyinchalik ko'proq ne'matdan mahrum bo'lishi mum-kin (baholovchi, didaktik); *"Oyga yetmas oshingni ovuldoshingdan ayama"*–hatto moddiy boyliklaring oz bo'lsa ham, undan boshqalarga ulashish kerak (etik-regulativ); *"Osh egasi bilan totli"*– taomning qadri uni tortayotgan insonning samimiyati bilan belgilanadi (ijtimoiy-psixologik); *"Mehmon so'rab yemaydi"* – mehmon odob yuzasidan biron narsani so'rab olib yemaydi, mezbonning o'zi uning ehtiyojini sezishi kerak (ijtimoiy-psixologik); *"So'rab berguncha urib ber"*–mehmonning ehtiyojini u aytmasidan ilg'ab, o'z vaqtida g'amxo'rlik qilish lozim (regulativ); *"Chiroysitib (aftini burishtirib) osh berguncha, kulib turib og'u ber"*–muomaladagi samimiyat moddiy ne'matdan ham muhimroq (etik); *"Yemayman degan kuyov yetmish quymoq yebdi"*, *"Yemayman degan kelin yengdek hasipni yebdi"*, *"Yemayman, yemayman deb, yengdagini yebdi"* – mehmon (kuyov/kelin) odob yoki tortinchoqlik sababli haqiqiy xohishini ochiq bildirmasligi mumkin, ya'ni, odob va hayo sababli aytilgan rad javobi har doim haqiqiy istakni anglatmaydi (ijtimoiy-psixologik); *"Taom lazzati – mehmon izzati"* – taomning qadri mehmonni hurmat qilish bilan ortadi (aksiologik); *"Avval taom, ba'daz kalom"*–mehmon kutish madaniyatida ovqat tortish va xizmat ko'rsatish suhbatdan ustun qo'yilishi lozim (regulyativ); *"Mehmonning izmoni (ixtiyori, erki) bor"*–mehmonning shaxsiy erki va tanloviga hurmat bilan qarash lozim (etik); *"Kelmoq – irodat bilan, ketmoq – ijozat bilan"*, *"Kelish izmi mehmonda, ketish izmi mezbonda"* – mehmon kelishni o'zi hal qiladi, ketishda esa mezbon

bilan hisoblashadi (regulyativ); *"Qo'noq o'zi kelsa ham, uy egasi izmida bo'ladi", "Mehmon – mezbonning quli"* – mehmon uyga kirgach, mezbonning tartib-qoidalariga bo'ysunadi (etik-regulativ); *"Salomsiz kirgan – uyat, Javobsiz chiqqan–uyat"*–salomlashish va javob qaytarish muomala madaniyatining majburiy qismi (etik); *"Mehmonning ketishini so'rama, kelishini so'ra", "Kel" demoq bor, "ket" demoq yo'q"* – mehmonning tashrifi qadrlanishi, uning ketishi esa oshkor istalmasligi kerak, mehmonni haydash odobsizlik hisoblanadi (etik-regulyativ); *"Suhbat sevmagan tegirmon qurar, Mehmon sevmagan bolasin urar"* – mehmon va suhbatni yoqtirmaslik salbiy insoniy sifat deb qaraladi (baholovchi); *"Kelmoq – sunnat, Ketmoq –farz", "Ketuvchiga yo'l yaxshi"*– mehmonga borish ma'qullansa-da, vaqtida ketish ham zarurdir (diniy-regulativ); *"Qoluvchiga uy yaxshi"* – mezbon o'z uyida erkin va qulay bo'ladi (ijtimoiy); *"Mehmonni otqar (otga mingazmoq), Boshingni qutqar"* – mehmonni vaqtida kuzatish ikki tomon uchun ham foydali (utilitar); *"O'z izzati bilgan mehmon – yaxshi"* – mehmon ham me'yorni bilishi kerak (baholovchi); *"Yaxshi mehmon osh ustiga, Yomon mehmon bosh ustiga"*–yaxshi mehmon xursandchilik keltiradi, yomon mehmon tashvish tug'diradi (baholovchi); *"Mezbon borini qo'ysa, mehmon ozga sanamas"*–mehmon mezbonning imkoniyatini tushunishi va minnatdor bo'lishi kerak (etik); *"Aytmas yerda og'zingni tiy, Mehmonga borsang–nafsingni"*–mehmon o'zini tiyib, odob doirasida tutishi kerak (etik-regulativ); *"Kunda kelgan mehmonning qadri yo'q", "Kunda kelsa kuyov yomon", "Oyda kelganga oyoq tutiladi, Kunda kelganga tayoq tutiladi"* – haddan tashqari tez-tez tashrif qadrsizlanishga olib keladi va ijtimoiy me'yor buzilishi sifatida baholanadi (baholovchi); *"Yaxshi mehmon – uch kunlik", "Qo'noqning kuni – uch, Undan keyin –ko'ch", "Mehmonning otini asl derlar, Uch kundan keyin sasir derlar"*–mehmonda bo'lishning maqbul davomiylik muddati mavjud (regulativ); *"Yolg'iz mehmon – atoyi xudo, Otliq mehmon – Baloyi xudo"* – mehmon soni va hamrohlari mezbon uchun yuk bo'lishi mumkin (utilitar); *"Mehmon kelsa mushtdakkina, uchib ketsa qushdakkina"* – mehmonning kelishi kichik voqea bo'lsa-da, ketishi mezbon uchun yengillik bo'lishi mumkin (ijtimoiy-psixologik); *"Betamiz mehmon mezbonni qistar"* – odobsiz mehmon mezbon uchun noqulaylik tug'diradi (baholovchi); *"Mehmon jabrchi bo'lsa, Mezbon sabrchi bo'lsin"* – mehmonning noqulay xatti-harakatlariga mezbon bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishi kerak (etik-regulyativ); *"Baxil ehsondan qochar, Xasis mehmondan qochar"* – baxillik saxovat va mehmondo'stlikka zid xususiyat sifatida talqin qilinadi (baholovchi); *"Qora suv chanqoq qondirmas, Baxil kishi qo'noq qo'ndirmas", "Baxilning tuynugidan yel kirmas, Eshigidan –el"*, – baxil inson mehmondo'stlik qila olmaydi, u ijtimoiy aloqalardan uzoqlashadi (baholovchi); *"Bermasning oshi pishmas, qozoni o'tdan tushmas"* – baxil insonning mol-dunyosi odamlarga foyda va baraka keltirmaydi (baholovchi); *"Bermasning qozoni qaynaguncha, buloqdagi suv ham quriydi"* – baxilning biror narsa ulashishi juda qiyin va kam uchraydigan holat (baholovchi);

"Baxilning tuzi tatimas"–baxil odamning bergan ne'mati ham qadrsiz va yoqimsiz tuyuladi (ijtimoiy-psixologik); *"Xasisning oshini yemoqqa temirdan tish kerak"*–xasis insonning mehmondorchiligi samimiy emas, undan bahramand bo'lish qiyin (baholovchi); *"Yomon na yeydi, na yediradi"* – yomon (xasis) inson na o'zi ne'matdan foydalanadi, na boshqalarga ulashadi (baholovchi).

Paremiologik material tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida "mehmondo'stlik" konseptining yadrosi hurmat (20%), saxovat (17%) va samimiyat (16%) semalaridan tashkil topgan bo'lib, ular umumiy nominativ maydonning 53 foizini egallaydi. Yaqin periferiyada baraka, ko'ngil kengligi va mehmon-mezbon odobi haqidagi tasavvurlar (28%) joylashadi. Uzoq periferiyani esa mehmonlikning vaqt me'yori hamda baxillikni qoralovchi paremiologik birliklar (19%) tashkil etadi. Natijada o'zbek madaniyatida mehmondo'stlik konsepti, avvalo, mehmonni ulug'lash, saxovat ko'rsatish va samimiy munosabat bildirish bilan bog'liq milliy-madaniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, "mehmondo'stlik" konsepti o'zbek xalqining milliy qadriyatlari tizimida muhim o'rin tutadi va u, avvalo, hurmat, saxovat, samimiyat, ko'ngil kengligi, mehr-oqibat va baraka kabi tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Paremiologik materiallarda mehmon yuksak qadriyat sifatida talqin qilinib, unga hurmat ko'rsatish, izzat-ikrom qilish va samimiy munosabat bildirish mezbonning muhim axloqiy burchi sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, mehmondorchilik jarayonida mezbon va mehmonning o'zaro huquq va majburiyatlari, odob-axloq me'yorlari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar aks etganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Попова З.Д. Семантико-когнитивный анализ языка .З.Д.Попова, И.А.Стернин. Воронеж, 2006, 226 с.

(2). Зацепина Е.А. Номинативное поле как объективация концепта. Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2007, № 1, 36–38 с.

(3). Гарипова Г.Р. Концепт «гостеприимства» в русском и английском языках. Дисс. …канд. филол. наук. Уфа, 2010, 226 с.

(4). Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Национально-культурная семантика русских фразеологизмов. Словари и лингвострановедение. М., 1982, с. 89 –98; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). М., изд-во РУДН, 1997, 331 с; Залевская А.А. Слово в лексиконе человека. Психолингвистические исследования. Воронеж, изд-во ВГУ, 1990, 207 с; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. М., "Гнозис", 2004, 390 с; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. С-Пб., 1999, 288 с; Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX в. Язык и наука конца 20 в. М., 1995, с. 173 – 189; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. Русская словесность, Антология. М., "Academia", 1997, 196 с.

(5). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 671-bet.

(6). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 591-bet.

(7). Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent, "Ma'naviyat", 2013, 319-bet.

(8). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati. Toshkent, "Fan", 1964, 211-bet.

Qulmanova Mohinur Anvar qizi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti; E-mail: mohinurkulmanova@gmail.com; https://orcid.org/0009-0009-0390-3241)

RETROSPEKSIYA VA PROSPEKSIYANING MATN KATEGORIYALARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada matn tilshunosligining muhim masalalaridan biri retrospeksiya va prospeksiya kategoriyalarining matn kategoriyalari tizimidagi o'rni, turlari hamda vazifaviy-ma'noviy xususiyatlari yoritilgan. Bunda mazkur kategoriyalarning matn yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni, turlari va ifoda vositalari ingliz hamda o'zbek badiiy asarlari misolida tahlilga tortilgan. Retrospeksiya va prospeksiya matnning zamoniy-tuzilmaviy qurilishini belgilovchi umumlisoniy kategoriyalar bo'lib, turli tuzilishdagi tillarda ularning ko'rinishi va ifoda yo'llarida ko'zga tashlanadigan farqlar mavjudligini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *matn kategoriyalari, retrospeksiya, prospeksiya, diskontinuum, temporal struktura, funksional-semantik tahlil, tipologik tasnif, badiiy matn.*

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕТРОСПЕКЦИИ И ПРОСПЕКЦИИ ТЕКСТОВЫХ КАТЕГОРИЙ

Аннотация. *В статье рассматривается одна из важных проблем лингвистики текста – место категорий ретроспекции и проспекции в системе текстовых категорий, их виды, а также функционально-семантические особенности. На материале английских и узбекских художественных произведений анализируются роль данных категорий в обеспечении целостности текста, их разновидности и средства выражения. Ретроспекция и проспекция рассматриваются как общеязыковые категории, определяющие временно-структурную организацию текста; выявляются различия в их проявлении и способах выражения в языках различного строя.*

Ключевые слова: *текстовые категории, ретроспекция, проспекция, дисконтинуум, темпоральная структура, функционально-семантический анализ, типологическая характеристика, художественный текст.*

FUNCTIONAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE TEXT CATEGORIES OF RETROSPECTION AND PROSPECTION

Annotation. *The article examines the role, types, and functional-semantic characteristics of the categories of retrospection and prospection—key issues in text linguistics—within the system of text categories. It analyzes the role of these categories in ensuring textual coherence, as well as their types and means of expression, using examples from English and Uzbek literary works. Retrospection and prospection are identified as universal linguistic categories that determine the temporal-structural organization of a text; the study highlights the observable differences in their manifestation and modes of expression across languages of varying structures.*

Keywords: *text categories, retrospection, prospection, discontinuum, temporal structure, functional-semantic analysis, typological classification, literary text.*